

## TEXNOLOGIYA DARSALARIDA COREL DRAW DASTURIDA TO‘G‘RI VA EGRI CHIZIQLAR CHIZISH KO’NIKMALARINI RIVOJLANTRISH

*Naxalboyev Nazarbek*

*O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, assistenti*

*Nasriddinov Sharofiddin*

*O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ta’lim sohasida texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashda modellashtirish dasturlarini o‘rgatishga, avtomatlashtirilgan texnik tizimlardan foydalanishga ehtiyoj va talablar ortmoqda. Texnologiya darsalarida Corel DRAW dasturini o‘rganish va ko’nikmalarini rivojlantrish

**Kalit so’zlar:** Corel DRAW dasturi

Hozirgi vaqtida mamlakatimizda raqamli texnologiyalar asosida oliy ta’lim muassasalarining pedagogika sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, xususan, o‘quv jarayonida zamonaviy texnika va texnologiyalardan keng foydalanishni joriy etish orqali texnologik ta’lim yo‘nalishida yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e’tibor berilmoqda. 2019-yil 8-oktabrda bo‘lib o‘tgan tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagi masalalarni aytib o‘tgandilar “Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan, o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko’nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish; oliy ta’limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta’lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish”.<sup>1</sup> kabi bugungi kunning eng muhim masalalari alohida takidlangan.

“Texnologik ta’lim yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyalari shundan iboratki, o‘quv mashg‘ulotlarning asosiy qismi amaliy va ishlab chiqarish mazmuniga egaligi bois, barcha ijtimoiy, iqtisodiy, tabiiy texnik va boshqa fanlar mazmunan integratsiyalashgan holda amaliy tadbig‘ini topadi. Shu jihatdan olib qaraganda texnologik ta’lim o‘qituvchisi turli fanlar mazmunini o‘zida mujassamlashtiruvchi (integratsiyalovchi) mutaxassis hisoblanadi”. Chunki, texnologik ta’lim amaliyotini fan-texnika yutuqlari va ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalaridan ajralgan holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Zamonaviy ishlab chiqarish jixozlari, mexanizm va mashinalarning tuzilishi, ishlash tartibini, bajaradigan texnologik jarayonlarning kechishini muayyan qonuniyatlarga asoslanib tushuntirilmog‘i lozim.


Kanadaning Corel firmasi tomonidan ishlab chiqilgan CorelDRAW grafik

dasturidir. Bu firmaning juda ko'plab dasturiy mahsulotlari mavjud bo'lib, butun dunyoda keng ommalashib ketgan, eng so'ngi texnologiyalarni o'zida mujassamlashtiradi.

Bu dasturlarning grafik imkoniyatlari juda yuqori va ayni paytda ham soda, ham murakkab topshiriqlarni bajara oladi


CorelDRAW xozirda eng ko'p tarqalgan vektorli grafik muharrirlardan biri hisoblanadi. Ishlatish va sozlash qulayligi, tarkibiga kiritilgan ko'plab effektlar to'plami foydalanuvchilarni bu dasturni ishlatishga yanada ko'proq jalg qilmoqda. Dastur interfeysining qulayligi qisqa vaqtda uning asosiy imkoniyatlari haqida tushuncha xosil qilish imkoniyatini beradi. CorelDRAW dasturini o'rganishning eng samarali usuli - bu dasturda ko'proq amaliy ishlashdir. Dasturni endi o'rganishni boshlagan foydalanuvchilar katta miqdordagi murakkab ma'lumotlarni o'zlashtirmasdan ham kompyuter grafikasi olamiga kirishib ketishi mumkin

**Vektorli tasvir deb,** faqat yaqqol ajratilgan nuqta (tugun)lar va bu nuqtalarni qandaydir qonunlarga asosan tutashtiruvchi chiziqlarlardan tashkil topgan tasvirga aytildi



1-rasm. Vektorli tasvirming ichki va tashqi qismlari

Asboblar paneli — CorelDRAW dasturi interfeysining muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Hujjat oynasida ixtiyoriy amal asboblar panelidagi biror asbob yordamida bajariladi. Bunda tanlangan asbob va belgilangan ob'yektga bog'liq ravishda dastur xususiyatlar panellari ham o'zgarib turadi. CorelDRAW barcha asboblar asboblar panelida jamlangan.



2-rasm. Asboblar paneli



### Безье (Bezier) asbobi

Bu asbob yordamida ixtiyoriy shakldagi figurani chizish mumkin. Uning qulaylik tomonlaridan biri asbobni harakatga keltirgandan so'ng markazdan bir xil uzoqlikdagi qarama-qarshi masofalarda to'g'ri chiziqli koordinatani saqlaydi va egri chiziqli shakkarni osonlikcha chizadi.



### Перо (Pen) asbobi

Bu asbob bilan ishslash yuqoridagi Безье(Bezier) asbobi bilan ishslashga o'xshab ketadi. Asbob bilan ishslashni tugatish uchun, ya'ni chiziqning yakuniy uchini o'rnatish uchun sichqoncha chap tugmasi ikki marotaba bosiladi.



### Кривая через 3 точки (3-Point Curve)


Egilgan chizig chizish uchun ishlatiladigan asbob bo'lib, sichqoncha chap tugmasi bиринчи bosilgan nuqta boshlang'ich tugun, sichqoncha tugmasi qo'yib yuborilgan nuqta yakuniy tugun va yana bir bora sichqonchaning bosilgan joyi egilish joyini aniqlab beradi va ekranda egilgan chiziq xosil bo'ladi.



**Группа инструментов Ellipse (Эллипс)** Bu guruh asboblari yordamida ellips, aylana ,yoq va sektorlar yaratish mumkin.

Эллипс(Ellipse) va Эллипс по трем точкам (3-Point Ellipse) asboblari

yordamida ellips va aylanalar yaratish mumkin. Bu figuralarни Forma (Shape) asbobi yordamida ularning to'rtta bazaviy nuqtalarini siljitim osongina yoy va sektorga aylantirish mumkin. Agar siljitim vaqtida sichqoncha ko'rsatkichi figura ichida bo'lsa, sektor yaratiladi, aks holda yoy. Buni figuraga mos ravishda ochiladigan xususiyatlar panelidan ham foydalanib bajarish mumkin. Bu paneldagi uchta bibrinchi tugmalar yordamida figuralar tipini tanlash mumkin.




### ***Объект (Object) asboblar guruhi***

Bu guruhda beshta maxsus ob'yektlarni yaratish imkoniyatini beruvchi asboblar joylashgan: ko'pburchaklar, yulduzlar, murakkab yulduzlar, setka va spirallar.

Многоугольник (Polygon) asbobi Ko'p sonli burchaklar va qirralarga (3dan 500 gacha) ega bo'lgan ko'pburchaklar yaratish uchun qo'llaniladi. Burchaklar va qirralar sonini maxsus paydo bo'ladigan xususiyatlar panelidagi

Количество вершин или сторон многоугольника (Number of points or sides on polygon) maydonida kiritish va o'zgartirish mumkin.



### ***Звезда (Star) asbobi***

Bu asbob yulduzlar yaratish uchun ishlatiladi. Asbobning xususiyatlar panelida ikkita maydon mavjud:

- Количество вершин звезды (Number of points on star)-yulduz qirralari soni.
- Степень заострения вершин звезды (Sharpness of Star) — yulduz chiziqlari qo'shni chiziqlarni necha marotaba kesib o'tishi qiymati kiritiladi.

CorelDRAW dasturi ishlab chiqaruvchilari ham odatda pikseli tasvirlarni dpi larda o'lchashadi, shuning uchun ushbu qo'llanmada ham o'lchovlar dpi larda beriladi.

CorelDRAW dasturi asosan vektorli tasvirlar yaratish va ular bilan ishlashga mo'ljalangan bo'lsada, unda rastrli tasvirlar bilan ham ishlash mumkin.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 5847-sonli farmoni
2. Жвалевский А., Донцов Д. CorelDRAW X4. Начали! — СПб.: Питер, 008. — 144 с.
3. Ковтанюк Ю. С. K56 Рисуем на компьютере в CorelDRAW X3/X4. Самоучитель. М.: ДМК Пресс, 2008, 544 с.
4. J.N.Husanovich. Texnologiya ta'limi fanini o'qitishda axborot kommunikasion texnologiyalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 3. (29) 99-102. 2024.04.23
5. J.N. Husanovich. Texnologiya ta'limi fanini o'qitishda elektron darsliklar va zamonaviy texnologiyalarning o'rni. PEDAGOG 7 .(6), 289-291. 2024.06.16
6. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). KOMPYUTER VA UNING GLOBAL TA'LIMDAGI KREATIV O'RNI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(6), 514-521.
7. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). COMPUTER GRAPHICS: EXPLORING COMPUTER GRAPHICS IN AREAS DRAWING AND ARTS. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(19), 43-46.
8. Makkamovich, S. S., Faxriddin o'g'li, F. M., & Xolmuhamad o'g'li, K. J. (2024). DIDAKTIKA TA'LIMDA PEDAGOGIK NAZARIYA SIFATIDA. IMRAS, 7(6), 130-135
9. Fazliddin o'g'li N. N. Bo 'lajak texnologiya fani o 'qituvchilarining ijodiy faolligini rivojlantrishda kompas 3d dasturida loyihalashdan foydalanish metodikasi //Fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi. – 2023. – C. 280-288